



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ERTA BAHORGU MUDDATLARDA OCHIQ DALA MAYDONLARIDA BODRINGNI YETISHTIRISHNING QULAY MUDDATLARINI ANIQLASH.

Allamjarova Gulbaxar Axmetovna

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari
instituti tayanch doktoranti

Erejepova Gulbaxar Tajetovna

Qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori, dotcent
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18043882>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-dekabr 2025 yil
Ma'qullandi: 20-dekabr 2025 yil
Nashr qilindi: 24-dekabr 2025 yil

KEYWORDS

*Bodring o'simligi, yetishtirish
muddati, urug', hosildorlik,
barg, qaytalama, poya.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi tuproq
iqlimi sharoitida erta bahorgi muddatlarda ochiq
maydonlarda bodring yetishtirishning eng qulay
muddatlarini aniqlash bo'yicha olib borilgan
taqqiqlarning ilmiy tahliliy natijalari keltirilgan.*

Mamlakatimizda sabzavotchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va mahsulotning eksport salohiyatini kuchaytirish bo'yicha qator choralar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabr PQ-5853-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasini 2020-2030 yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi" aholini oziq-ovqat xavfsizligini va to'g'ri ovqatlanish madaniyatini ta'miyinlash asosiy vazifalardan biri qilib belgilangan. Sabzavotlar ichida bodring asosiy ekinlardan biri bo'lib, uni ishlab chiqarish hajmini oshirish va sifatini yaqshilash katta ahamiyatga ega.

2023-yil 20-oktyabr holatiga ko'ra, O'zbekistonda silliq katta bodringning o'rtacha ulgurji narxi o'tgan yilning shu sanasiga nisbatan 22 foizga va 2021-yilning shu sanasiga roppa-rosa 2 baravariga yuqori.

Bodring - (lotincha: Cucumis sativus L) bir yillik o'simlik. Vatani Hindiston ammo dunyoning ko'pgina mamlakatlarida yetishtiriladi. Issiqsevar o'simlik hisoblansada vegetatsiya davrining qisqaligi sababli yer kurrasining shimoliy o'lkalarida ham yetishtiriladi. O'zbekistonda taxminan 8000-10000 gektar maydonda yetishtiriladi. Bodring pishmagan barra mevalari yangiligicha, tuzlangan, konservalangan holda istemol qilinadi. Tarkibiy jihatdan qaralganda protein 100 g bodring mevasida 96 g suv, 0,6 g protein, - 0,1 g yog', 2,2 g karbonat gidrat, 0,03 mg vitamin C, 12 mg kaltsiy, 0,3 mg temir, 15 mg marganets va 24 mg fosforni o'z ichiga oladi.

Malumki, har bir sabzavot ekinining eng qulay bo'lgan ekish muddatlarini aniqlash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shuning uchun ko'pgina ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan bu masala o'rganilmoqda. Bodring o'simligi O'zbekistonda sabzavot ekinini sifatida keng ekiladi, yetishtirish maydonlari bo'yicha pomidor, piyoz, sabzi, oq bosh karam sabzavotlardan keyingi o'rinda turadi. Sabzavot ekinlarini erta muddatlarda, o'rta muddatlarda va kechki muddatlarda yetishtirish ekinning hosildorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida erta bahorgi muddatlarda bodringni ochiq maydonlarda yetishtirishning qulay muddatlarini aniqlash bo‘yicha taqdiqot ishlari olib borilmaganini hisobga olib bu yo‘nalishda tajriybalar olib bordik.

Tajriybalar 2025-yil Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus tumanidagi “Uchxo‘z” tajriyba xo‘jaligida ochiq dala sharoitida olib borildi.

Tajriyba qo‘yish jarayonida bodring urug‘larining Navruz, Zilol, Nafis navlari va Superina F₁, Fontina F₁, Accent F₁ gibridlari tanlab olindi.

Bodring o‘simligi urug‘lari 3-4 sm masofalarda 70x40 sm sxemada ikki qatorda lentasimon usulida ekilgan. 100 m² maydonga 1,5 kg urug‘lik sarflandi. Bolalar ko‘karib chiqqandan so‘ng , har bir qo‘zichoqda 2-3 ta o‘simlik qoldirilib , ular bilan bir qatorda o‘simliklar ham olib kelinadi. Urug‘lar 2-3 barg hosil bo‘lgan o‘simliklarda 12-15 sm kenglikdagi qo‘riqlash maydonini qoldirib, qo‘lda birinchi marta 6-8 sm masofada kultivatsiya qilindi.. Ikkinchi kultivatsiya o‘tkazilishidan oldin birinchi o‘simlik suvi berildi.

Har navbattagi sug‘orishdan keyin qator oralarini yumshartish va 2-3 marotaba suv berilgandan keyin 16-18 sm chuqurlikda qator oralarini ochish yani egat tortish ishlari olib borildi. Navbattagi kultivatsiya o‘simliklarning himoya maydoni 20-25 sm ga yetkazilib, qator orasi 15-16 sm chuqurlikda yumshartildi.

1-jadval

Bodring o‘simligining fenologik kuzatish natijalari hisobi.

Ekish muddatlari	Urug‘ning ko‘karib chiqishi, kun	Birinchi gulning paydo bo‘lishi	Birinchi mevaning paydo bo‘lishi
20-mart	04.04	09.05	18.05
1-aprel	12.04	13.05	22.05
10-aprel	20.04	17.05	27.05
20-aprel	26.04	26.05	02.06

Olib borgan har ekilgan to‘rt muddatdagi taqdiqot natijalarimizda bodring o‘simligi urug‘lari unib chiqishida kunlar oralig‘ida sezilarli farq bo‘ldi. 20-mart kungi ekilgan bodring o‘simligi urug‘lari 14 kunda, 1-aprel kungi ekilgan bodring o‘simligi urug‘lari 12 kunda, 10-aprel kungi ekilgan bodring urug‘lari 10 kunda va oqirgi 20-aprel kungi ekilgan bodring o‘simlgi urug‘lari 6 kunda ko‘karib chiqdi.

2-jadval

Bodringni turli xil ekish muddatlarini o‘simlikning o‘shish va rivojlanishiga ta‘siri.

Ekish muddatlari	Asosiy poyaning uzunligi, sm	Yon shoxlar soni, dona	Yon shoxlarning umumiy uzunligi, sm	Barglar soni, dona
20-mart	180.1	2.5	60.2	45.5
1-aprel	169.3	2.0	71.5	50.5
10-aprel	170.8	1.8	56.1	43.2
20-aprel	164.2	1.5	35.5	37

Tajriyada har to‘rt muddatda ekilgandagi bodring o‘simligining hosildorligi to‘rt xil natijani ko‘rsatdi. 20-mart kungi ekilgan bodring o‘simligining o‘rtacha hosildorligi oqirgi muddatda ekilgan yani 20-aprel kungi ekilgan bodring o‘simligining hosildorligidan 30,9 kg ga kam bo‘ldi. 1-aprel kungi muddatda ekilgan bodring hosildorligi 20-aprel kungi ekilgan bodring o‘simligi hosildorligidan 30,6 kg ga kam bo‘ldi. 10-aprel kungi ekilgan bodring o‘simligi esa 20-aprel kungi ekilgan bodring o‘simligidan 1,6 kg ga kam bo‘ldi.

Tajriyada hosilning birinchi terimi esa 20-mart kungi ekilgan muddatda 60 kunni, 1-aprel kungi ekilgan muddatda 58 kunni, 10-aprel kungi ekilgan muddatda 48 kunni va 20-aprel kungi ekilgan muddatda 45 kunni tashkil qildi.

3-jadval

Bodringni turli xil ekish muddatlarini o‘simlikning hosildorligiga ta‘siri

Muddatlar	Hosildorlik, kg	Hosilning birinchi terimi, kun
20-mart	47,8	60,
1-aprel	48,1	58,
10-aprel	77,1	48
20-aprel	78,7	45

Xulosa

Qoraqalpog‘iston Respublikasi tuproq iqlimi sharoitida erta bahorgi ochiq maydonlarda bodring o‘simligini urug‘idan sinab ko‘rilgan ekish muddatlari ichida eng yuqori hosil 20-aprelda ekilganda shakllandi.

References:

- 1.Ostonaqulov T.E, Zuyev V.I, Qodirxo‘jaev O.Q. “Sabzavotchilik”. Toshkent – 2010.312-b.
2. Abdunazarov Ya.Ya, Zokirov Q.G‘. “Sabzavotchilik”. Toshkent 2019. 71-b.
3. Abdunazarov Ya. Ya, Zokirov Q.G‘. “Sabzavotchilik”. Toshkent-2019. 74-75-b.